

**Vapayev Karimboy Muzaffar o'g'li**  
**Toshkent davlat yuridik universiteti**  
**Jinoiy odil sudlov fakultetining 2-kurs talabasi**  
**E-mail: [vapayevkarimboy@gmail.com](mailto:vapayevkarimboy@gmail.com)**

## **SUD-HUQUQ TIZIMINING DOLZARB MASALALARI**

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada sud-huquq tizimida mavjud bo'lgan dolzarb masalalar, jumladan, odil sudlovni amalga oshirishda sudyaning barcha huquqlaridan foydalanishi va raislik qiluvchi bilan teng huquq va erkinliklarga ega bo'lgan xalq maslahatchilarining yaxshi ishlamasligi amaliyot bilan bog'liq holatlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Sudyalar Oliy Kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy Maktabida o'qimasdan turib ilk bor sudyalik lavozimiga tayinlanishi mumkin bo'lgan shaxslar uchun belgilangan benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lish tushunchasini muayyan ta'rifi yo'qligi xorijiy davlatlar, jumladan, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iston Respublikasi, Gruziya Respublikasining sudlar to'g'risidagi qonunlari asosida qiyosiy huquqiy tahlil qilinadi. Shu bilan birga "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Sudyalar Oliy Kengashi to'g'risidagi Qonunida mavjud bir-biriga zid keladigan normalari yuzasidan fikrlar bildirib o'tilgan. Ushbu maqolaning dolzarbliigi bugungi kunda sud-huquq tizimida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish asoslaridir. Mavzu doirasida xorijiy davlatlarning qonun hujjatlari tizimli o'rganilib mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Sud-huquq tizimi, xalq maslahatchilari, benuqson obro'-e'tibor, Sudyalar Oliy Kengashi, sudyalik lavozimiga nomzod, sud qarorlari barqaroqligi.

**ANNOTATION:** This article analyzes current issues in the judicial legal system, including the use of all rights of the judge in the administration of justice and the poor performance of people's councilors, who have equal rights and freedoms with the chairman, on the basis of cases related to practice. Also, the impeccable reputation established by the President of the Republic of Uzbekistan in the Law of the Republic of Uzbekistan "On Courts" for persons who can be appointed to the position of judge for the first time without having studied at the Higher School of Judges under the Supreme Council of Judges - the absence of a specific definition of the concept of having attention, a comparative legal analysis is carried out on the basis of the Laws on courts of the Republic of Kazakhstan, the Kyrgyz Republic, and the Republic of Georgia. At the same time, opinions were expressed regarding the conflicting norms contained in the Law of the Republic of Uzbekistan on Courts and the Law on the Supreme Council of Judges. The relevance of this article is the problems existing in the judicial legal system today and the basis for their elimination. Within the framework of the topic, the legal documents of foreign countries were systematically studied and proposals were developed to eliminate existing problems.

**Key words:** Judicial legal system, people's advisers, impeccable reputation, Supreme Council of Judges, candidate for the position of judge, stability of court decisions.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье на основе дел, связанных с упражняться. Также безупречная репутация, установленная Президентом Республики Узбекистан в Законе Республики Узбекистан «О судах» для лиц, которые могут быть назначены на должность судьи впервые, не пройдя обучение в Высшей школе судей. при Высшем совете судей - отсутствие конкретного определения понятия обладания вниманием, сравнительно-

правовой анализ проводится на основании законов о судах Республики Казахстан, Кыргызской Республики и Республики Грузия. При этом были высказаны мнения относительно противоречивых норм, содержащихся в Законе Республики Узбекистан «О судах» и Законе «О Высшем совете судей». Актуальность данной статьи заключается в проблемах, существующих сегодня в судебно-правовой системе, и основаниях для их устранения. В рамках темы систематически изучались правовые документы зарубежных стран и разрабатывались предложения по устранению существующих проблем.

**Ключевые слова:** Судебно-правовая система, народные советники, безупречная репутация, Высший совет судей, кандидат на должность судьи, стабильность судебных решений.

---

## **KIRISH**

O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovni amalga oshirishda asosiy organ hisoblangan sudlar faoliyatini takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va fuqarolar huquq va erkinliklarini ishonchli himoyasini ta’minlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari belgilab olingan. Sohaga oid jadallashgan sa’y-harakatlar Prezidentimiz tashabbusi va alohida nazorati doirasida olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyulda qabul qilingan PF-5482-sonli “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ham sud-huquq tizimidagi muammolarni bartaraf etish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va sud tizimi faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan olib borilgan chora tadbirlar sirasiga kiradi [1].

Sud-huquq tizimida nafaqat sudyalarni lavozimiga tayinlashga imkon beradigan benuqson obro‘-e’tibor bilan bog‘liq talablarni ishlab chiqish balki sudyalar bilan bir qatorda odil sudlovni amalga oshirishda sudyaga bevosita yordam beradigan xalq maslahatchilarining ham huquqiy maqomini aniq belgilab qo‘yish lozim. Shu nuqtayi nazardan sud hokimiyatida xalq maslahatchilariga oid qonunchilikni ishlab chiqish, sudlar to‘g‘risidagi qonunning ayrim normalarini takomillashtirish lozim.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ishda mantiqiy, qiyosiy-huquqiy va ilmiy manbalarni aniq tadqiq qilish, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qo‘llash amaliyotini o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan. Shu bilan birga sud-huquq tizimiga aloqador qonunchilik bilan bog‘liq Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Gruziya va ushbu tizimni amaliyoti bilan bog‘liq Daniya, Fransiya, Angliya, Avstriya, Narvegiya davlatlarining ijobiy tajribasi o‘rganiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Sudlar to‘g‘risida” gi 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan O‘RQ-703-sonli qonunning [2] 59-moddasiga ko‘ra, 35 yoshdan kichik bo‘lmagan, fuqarolarning yashash va ish joyidagi yig‘ilishida ochiq ovoz berish yo‘li bilan ikki yarim yil muddatga saylangan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi xalq maslahatchisi bo‘lishi mumkin. Jinoya Protsessual kodeksining [3]

13-moddasiga ko‘ra jinoyat ishlarini hay’atda va yakka tartibda ko‘rib chiqish tartibi belgilangan bo‘lib, ushbu normaning uchinchi bandida ish birinchi instansiya tomonidan hay’atda ko‘rilganda sud tarkibiga sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi kirishi belgilangan. Shuningdek, ushbu normaning to‘rtinchi bandida xalq maslahatchilari odil sudlovni amalga oshirishda sudyaning huquqlaridan foydalanishi, ular sud majlisida ishni ko‘rish chog‘ida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda raislik qiluvchi bilan teng huquqqa egaligi belgilangan.

Ushbu kodeksning 14-moddasida sudyalar va xalq maslahatchilari mustaqilligi, faqat qonunga bo‘ysunishi va ularni odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘rsatib o‘tilgan. Jinoyat Protsessual kodeksi 30-moddasiga asosan, jinoyat ishini ko‘rishda shu sud tarkibiga tayinlangan sudyalar va xalq maslahatchilari qatnashishi belgilangan. Shuningdek, ijtimoiy havflilik darajasiga ko‘ra og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni birinchi instansiya sudi tomonidan ko‘rib chiqish va hal qilishda sudya va ikki nafar xalq maslahatchisi ishtirok etadi. Har bir sud uchun xalq maslahatchilari soni sudyalarning tegishli malaka hay’atlari tomonidan belgilanadi. Xalq maslahatchilari sudlardagi o‘z vazifasini bajarishga bir yilda ko‘pi bilan ikki haftaga navbatma-navbat chaqiriladi, bunda ularning ishtirokida boshlangan sud ishining ko‘rishni tugallash zarurati bu muddatni uzaytirishni taqozo etgan hollar bundan mustasno. Shu davrda ularni ish joyidagi o‘rtacha ish haqi saqlanib qoladi. Shuni ta’kidlash kerakki, xalq maslahatchiligiga nomzodlar ko‘rsatish mehnat jamolari va fuqarolarning yashash joylaridagi saylovchilar tomonidan amalga oshiriladi. Xalq maslahatchilarining asosiy vazifasi odil sudlovni amalga oshirishda sudyaga ko‘maklashish hisoblanadi. Hozirgi paytda o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, xalq maslahatchilarini hammasi ham sudda ishlarni ko‘rish jarayonida faol qatnashmoqda deb aytib bo‘lmaydi. Bunga asos sifatida xalq maslahatchilari saylovini o‘tkazishda qonun talablariga rioya qilingan holda o‘tkazilishi va ba’zi bir jihatlar inobatga olinsa-da, ularning ishchanlik qobiliyati va hayotiy tajribasi e’tibordan chetda qolmoqda. Shu sababli ayrim xalq maslahatchilari ishlarni ko‘rishda nomigagina qatnashib, sud ishida faqat kuzatuvchi vazifasini bajarmoqda. Amaliyotimizdan ma’lumki, xalq maslahatchilarini samarali faoliyat olib bormasliklarini yana bir qancha sabablari mavjud.

**Birinchiidan**, xalq maslahatchilarini tarkibida turli kasb va ixtisosliklarga ega fuqarolardan iboratligi, ularning tarkibida huquqshunoslar sonining kamligi;

- xalq maslahatchilari faqat jinoyat va harbiy sudlarda og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni ko‘rib chiqishda qatnashar ekan, bu ishlarni ko‘rishda muhim bo‘lgan huquqshunoslik ixtisosiga ega bo‘lgan mutaxassislarning sonini oshirishga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

**Ikkinchiidan**, jinoyat ishlarini ko‘rishda xalq maslahatchilari qonunda belgilangan vakolatlaridan to‘la darajada foydalanmaydi.

- odil sudlovni amalga oshirishda xalq maslahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanishi, shuningdek raislik qiluvchi bilan teng huquqlarga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsada, xalq maslahatchilari ushbu huquqlardan to‘la foydalanmaydi. Qo‘shimcha qilib aytganda, xalq maslahatchilari sud ishida raislik qiluvchi singari savollar berishlari va sud muhokamasi jarayonida faol ishtirok etishlari mumkin.

**Uchinchiidan**, xalq maslahatchilariga yuklangan vazifalarni bajarish uchun sud majlisiga borishiga to‘sqinlik qiladigan holatlar mavjud.

- garchi barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va boshqa yuridik va jismoniy shaxslar sudyaning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan talablarini

soʻzsiz bajarishlari shart boʻlsa-da, xalq maslahatchilarini oʻz vazifalarini bajarish uchun toʻsqinlik qilish holatlari uchraydi.

**Toʻrtinchidan**, xato va kamchiliklar bilan chiqarilgan sud qarorlari boʻyicha intizomiy yoki boshqacha javobgarlik faqat sudyaga nisbatan qoʻllanilishi holati sud ishida xalq maslahatchilarini yetarli darajada masʼuliyat sezmasligiga olib kelmoqda.

- Jinoyat Protsessual kodeksining 13-moddasida, odil sudlovni amlaga oshirishda xalq maslahatchilari sudyaning barcha huquqlaridan foydalanishlari, sud majlisida ishni koʻrish jarayonida kelib chiqadigan hamma masalalarni hal qilishda va hukm chiqarishda raislik qiluvchi bilan teng huquqqa ega. Sud amaliyotida esa birinchi bosqich sudlarida ish xalq maslahatchilaridan iborat hayʼatda koʻrilib, sudlanuvchilarga nisbatan asossiz tarzda yengil jazo tayinlangan yoki sud tomonidan qoʻpol protsessual xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻyilgan holatlar boʻyicha yuqori sud instansiyalari sudning tegishli hukmini bekor qilib, faqat sudyaga nisbatan intizomiy jazo choralari koʻriladi. Ushbu holatda ishni koʻrish jarayonida vujudga kelgan xato va kamchiliklar uchun nafaqat sudyaga balki xalq maslahatchilariga ham intizomiy jazo choralari tayinlash lozim. Bu yoʻl orqali xalq maslahatchilarining sud ishida maʼuliyatli boʻlishini taʼminlash mumkin.

Xalq maslahatchilarining sud ishida ishtiroki bilan bogʻliq xorijiy davlatlar tajribasini koʻrib chiqamiz. Xalq maslahatchilari turli davlatlarda turlicha, sud maslahatchisi, xalq sudyasi, xalq vakillari nomlari bilan ataladi. Masalan, **Daniyada** birinchi instansiya sudida ishlarning koʻrilishida uchta professional sudya va uchta xalq sudyasi yohud toʻqqizta sud maslahatchisi ishtirok etadi.

**Fransiyada** jinoyat ishlari sudda professional sudyalar va sud maslahatchilaridan iborat hayʼat tarkibida koʻriladi. Sud maslahatchilari ayrim toifadagi, 10 yil ozodlikdan mahrum qilish (jismoniy shaxslar uchun) yoki 75000 yevro miqdorida jarima solish (yuridik shaxslar uchun) toʻgʻrisidagi jinoyat ishlarini koʻrishda ishtirok etadi. Shuningdek, 16-18 yoshli voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan ogʻir jinoyatlar uchun uchta sudya va toʻqqizta sud maslahatchilari ishtirokida koʻriladi. Mobodo, sudya sud maslahatchilarisiz, oʻzi yakka tartibda voyaga yetmaganlarning jinoiy nojoʻya harakatlariga doir ishlarni koʻradigan boʻlsa, bu holda sudya sudlanuvchiga nisbatan faqat tarbiyaviy va nazorat choralari koʻra oladi.

**Angliyada** sud maslahatchilari qotillik jinoyatlari, tabiiy boʻlmagan yoki gumonli oʻlim yoki oʻlim sababi aniqlanmagan holatlarni sud tartibida koʻrishda ishtirok etadi. Shu bilan birga, sud maslahatchilari fuqarolik ishlarini koʻrishda ham ishtirok etadi. Agar professional sudya zararni undirish lozimligi haqida toʻxtamga kelsa, sud maslahatchilari zararni qancha miqdorda undirish lozimligini belgilaydi.

**Avstriya, Daniya, Narvegiya** kabi davlatlarda eng ogʻir jinoyat ishlari sud maslahatchilari tomonidan, oʻrtacha ogʻirlikdagi jinoyat ishlari aralash hayʼat tomonidan, uncha ogʻir boʻlmagan jinoiy xatti-harakat uchun jinoiy javobgarlik masalalari esa yakka sudya tomonidan koʻrilishi belgilangan.

“Sudlar toʻgʻrisida” gi 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan OʻRQ-703 sonli qonunning 69-moddasida sudyalarni saylash va tayinlash tartibi belgilangan boʻlib ushbu moddaning toʻrtinchi bandida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan yoki kelishib olinadigan lavozimlarda faoliyat yuritayotgan va benuqson obroʻ-eʼtiborga ega boʻlgan shaxslar, istisno tariqasida, Oʻzbekiston Respublikasi Sudyalar Oliy Kengashi huzuridagi Sudyalar Oliy Maktabida majburiy tartibda oʻqitilmagan holda ilk bor sudyalik lavozimiga tayinlanishi belgilangan. Lekin nafaqat ushbu normada balki sudlar toʻgʻrisidagi qonunda benuqson obroʻ-

e'tibor aslida qanday bo'lishi yoki benuqson obro'-e'tiborga ega shaxslar deganda qanday hislatlarga ega odam tushunilishi belgilanmagan. Benuqson obro'-e'tibor qanday bo'lishini xorijiy davlatlar qonunchiligida aniq ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Qirg'iziston Respublikasi sudyalarining maqomi to'g'risida"gi 2021-yil 15-noyabrda qabul qilingan 138-sonli Qirg'iziston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuning [4] 10-moddasida sudyalar xulq-atvorining halolligi belgilangan bo'lib, ushbu normaning birinchi bandida sudya xulq-atvori benuqson bo'lsa, o'z lavozimini egallaydi va o'z vakolatlarini saqlab qoladi, ikkinchi bandida esa ushbu Konstitutsiyaviy Qonunning 31-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan sudyaning oliy martabasi bilan bog'liq bo'lmagan intizomiy harakatlar deganda sudyaning halollik talablarini jiddiy yoki muntazam ravishda buzish tushuniladi deb belgilangan. Ushbu qonunning 10-moddasi ikkinchi bandi orqali qonunning 31-moddasi sudyaning intizomiy javobgarligiga havola qiladi va ushbu normada belgilangan quyidagi talablarni buzilishi sudyaning benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

- 1) Odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylik aniq va qo'pol ravishda buzilganda;
- 2) Qirg'iziston Respublikasi sudyasining or-nomus kodeksini qo'pol ravishda buzgan holda;
- 3) Ishni yopiq sud majlisida ko'rib chiqish chog'ida maslahat xonasi sirini yoki sudyaga ma'lum bo'lgan sirni oshkor qilganda;
- 4) Odil sudlovni amalga oshirishdagi faoliyatiga yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirishga har xil turdagi aralashuvlar, shuningdek nazarda tutilmagan boshqa aralashuvlar, shuningdek, nazarda tutilmagan boshqa aralashuvlar to'g'risida sudyalar kengashini belgilangan tartibda xabardor qilmasa;
- 5) O'z mol-mulki, daromadlari va xarajatlari to'g'risida o'z vaqtida deklaratsiya qilmasa va taqdim etmasa, bila turib unga yolg'on ma'lumot taqdim qilsa;
- 6) Mehnat tartibi qoidalarini qo'pol ravishda buzsa, bu sud muhokamasida salbiy natijalarga olib kelganda;
- 7) Ushbu Konstitutsiyaviy Qonun 7-moddasi ikkinchi qismining 1- bandi (jismoniy va yuridik shaxslarning sudda va boshqa davlat organlarida vakillik qilish), 6-bandi (jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan, Qirg'iziston Respublikasi qonunlariga, Qirg'iziston Respublikasi xalqaro shartnomalariga yoki Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy sudning o'zaro kelishuvlariga muvofiq amalga oshiriladigan xizmat safarlari bundan mustasno - sudyalar xorijiy davlatlarning tegishli sudlari, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan Qirg'iziston Respublikasi chegarasidan tashqarida xizmat safariga chiqishlari) va 8-bandida ( ish tashlashlar va mitinglarda qatnashish) nazarda tutilgan boshqa talablarni qo'pol ravishda buzgan holda.

Ushbu talablarning birontasini buzilishi benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lish talablarini buzilishi hisoblanadi.

2000-yil 25-dekabrda qabul qilingan 132-sonli "Sud tizimi va sudyalarning maqomi to'g'risida" gi Qozog'iston Respublikasi Qonuning [5] 29-moddasida sudyalikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar belgilangan. Ushbu normaning ikkinchi bandida belgilangan talablarni buzgan shaxs sudya bo'la olmaydi va ushbu norma talablarini buzilishi benuqson obro'-e'tiborga ega bo'lishga to'sqinlik qilishi nazarda tutilgan.

- 1) sud tomonidan muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan;
- 2) sudyalik lavozimiga tanlovda ishtirok etgunga qadar uch yil davomida davlat xizmatini obro'sizlantirgan intizomiy huquqbuzarlik uchun intizomiy javobgarlikka tortilgan. Shu bilan birga, intizomiy huquqbuzarlik uchun davlat xizmatini obro'sizlantirish uchun ishdan bo'shatilgan bo'lsa;
- 3) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etganligi uchun sudyalik lavozimiga tanlovda ishtirok etgunga qadar uch yil davomida sud tartibida ma'muriy jazo chorasi qo'llanilgan bo'lsa;
- 4) jinoiy huquqbuzarlik sodir etganligi uchun sud hukmi chiqarilgan;



- 5) muqaddam sudlangan;
- 6) Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 35-moddasi birinchi qismining 3), 4), 9), 10) va 12) bndlari yoki 36-moddasi asosida jinoyat sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan;
- 7) salbiy sabablarga ko‘ra sudyalik lavozimidan, huquqni muhofaza qilish organlaridan, maxsus davlat organlaridan va sudlardan, harbiy xizmatdan, shuningdek Qozog‘iston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda bo‘shatilgan.

2023-yil 13-iyunda yangi tahrirda qabul qilingan Gruziya Respublikasining “Umumiy sudlar to‘g‘risida”gi Qonuning [6] 35.1-moddasida sudyalik lavozimiga nomzodni tanlash mezonlari va ularning hususiyatlari belgilangan bo‘lib, sudyalik lavozimiga nomzodlar ikkita asosiy mezan halollik va malakalilik asosida tanlanishi belgilangan. Halollik mezonini quyidagilardan iborat:

- Shaxsiy halollik va kasbiy vijdon;
- Mustaqillik, xolislik va adolatlilik;
- Shaxsiy va kasbiy xulq-atvor;
- Shaxsiy va kasbiy obro‘.

Ushbu mezonda asosan sudyaning kasbiy sifatlariga alohida urg‘u berilgan. Ushbu normada belgilangan halollik mezonlarini buzilishi sudyaning benuqson obro‘-e‘tiborga ega bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

“Sudlar to‘g‘risida” gi 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan O‘RQ-703-sonli qonunning 11-bob 74-moddasida sudyalarni intizomiy javobgarligi asoslari berilgan. Unga ko‘ra, Sudyalar faqat tegishli sudyalar malaka hay‘ati qaroriga binoan quyidagi hollarda intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin:

- odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida qonuniylikni buzganligi uchun;
- sud ishini tashkil etishda beparvoligi yoki intizomsizligi oqibatida yo‘l qo‘ygan kamchiliklari uchun;
- sudyalik sha‘ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan hamda sudning obro‘-sini tushiradigan nojo‘ya xatti-harakat sodir etganligi uchun;
- sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun;
- sud qarorining bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishining o‘zi, sud qarorini chiqarishda ishtirok etgan sudyaning, agar u ataylab qonun buzilishiga yoki jiddiy oqibatlarga olib kelgan vijdonsizlikka yo‘l qo‘ymagan bo‘lsa, javobgar bo‘lishiga sabab bo‘lmaydi.
- Agar intizomiy jazo choralari berilganidan keyin bir yil mobaynida sudya ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan holatlarni sodir etmasa, u intizomiy javobgarlikka tortilmagan deb hisoblanadi.

ushbu moddaning bechinchi bandida sud qarorining o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi agar u ataylab sodir etgan bo‘lmasa sudyaning javobgarlikka tortilishiga asos bo‘lmasligi belgilangan. Lekin, “Sudyalari Oliy Kengashi to‘g‘risida” gi 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan O‘RQ-427-sonli qonunining [7] 4-bob 22-moddasi Sudyalarni yangi vakolat muddati va boshqa sudyalik lavozimlariga tanlashda sudyalarning sudyalik faoliyati davrida benuqson obro‘-e‘tiborga ega bo‘lishi, halolligi, xolisligi, adolatlilik va layoqatliligi sudyalarni yangi vakolat muddatiga va boshqa sudyalik lavozimlariga tanlashning asosiy mezonlari sifatida belgilangan. Kengash yangi vakolat muddatiga tayinlanadigan sudyalik lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqishda ushbu nomzod tomonidan qabul qilingan sud qarorlarining barqarorligini, odil sudlovni amalga oshirish va qonuniylik normalarini qo‘llash borasida yetarli tajribaga ega ekanligi, shuningdek,

jamoatchilikning uning kasbiy faoliyati haqidagi fikrini inobatga oladi deb belgilab qo'yilgan. Demak, sud qarorlarini barqarorligi ya'ni o'zgartirilmaganligi, bekor qilinmaganligi ularni keyingi vakolat muddatiga tayinlanishida muhim ahamiyat kasb etishi belgilangan. Ushbu holatda bu ikki qonun normalari bir-biriga zid bo'lib qolmoqda. Chunki "Sudlar to'g'risida" gi qonunning 74-moddasida sud qarorlarini o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi, agar ataylab sodir etilmagan bo'lsa intizomiy javobgarlikka tortilmasligi belgilangan. Chunki sudyaga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llanilishi uni keyingi muddatga tayinlanish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin. Ammo, "Sudyalar Oliy Kengashi to'g'risida" gi qonunning 22-moddasida sud qarorlarining barqaror bo'lmasligi sudyani keyingi vakolat muddatiga tayinlanmasligiga olib kelishi bilan bo'g'liq norma mavjud. Ushbu qarama-qarshi normalar sudyalarni o'z faoliyatini tashkil etish jarayonida va ularni ikkinchi muddatga tayinlanish yoki yangi lavozimga tayinlanish jarayonida bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

## **XULOSA**

Bugungi kunda sud-huquq tizimida sudlar faoliyatini takomillashtirish, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligi va fuqarolar huquq va erkinliklarini ishonchli himoyasini ta'minlash bo'yicha tizimli islohotlar olib borilsa-da tizimda bir qator muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Quyi bog'in sudlarida qabul qilingan ko'plab sud qarorlari yuqori instansiyalar tomonidan bekor bo'lishi holatlari salmoqli darajada ko'paygan. Bu sud ishlarini yuqori saviyada ko'rilishiga shubha tug'diradi. Shuningdek, tizimda mavjud muammolardan biri bu xalq maslahatchilarini yaxshi ishlamasligi va ularni faqat kuztuvchiga aylanib qolganligi, "Sudlar to'g'risida"gi qonunda tegishli tartibda Sudyalar Oliy maktabida o'qimasdan turib ham Prezident tomonidan benuqson obro'-e'tiborga ega shaxslar ilk bor sudyalik lavozimlariga tayinlanishi bilan bog'liq norma mavjud lekin benuqson obro'-e'tibor tushunchasining aniq ta'rifi yo'qligi va qonunchilikni takomillashtirish bilan bog'liq bir qancha kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Ushbu muammolarni tizimli o'rganib chiqib ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim.

**Yuqoridagi tahliliy fikrlar va xorijiy davlatlarning tajribasini o'rgangan holda quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:**

**Birinchidan,** O'zbekiston Respublikasining "Odil sudlovni amalga oshirishda xalq maslahatchilarining huquqiy maqomi to'g'risida"gi qonuni ishlab chiqish lozim.

Ushbu qonunda og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni tuman va viloyat sudlarida ko'rish jarayonida xalq maslahatchilarini ishtirok etishini majburiy qilib belgilash, shuningdek, ushbu qonunda ularning har bir ixtisoslik bo'yicha aniq belgilangan soni, ularni tanlash shartlari, muddatlari, eng asosiysi ularni huquqiy maqomi belgilanishi, xalq maslahatchilarini sud ishida o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari uchun yetarli imkoniyatlar yaratib beradigan normalarning bo'lishi, shu bilan birga xato va kamchilik bilan chiqarilgan qarorlar uchun xalq maslahatchilariga intizomiy jazo tayinlash bilan bog'liq normalar kiritilishi lozim.

**Ikkinchidan,** sudlar to'g'risidagi qonunda benuqson obro'-e'tibor tushunchasini aniq ta'rifini keltirib o'tish lozim. Ushbu ijobiy tajriba Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Gruziya va boshqa davlatlarning qonunchiligida aniq ifodasini topgan.

**Uchinchidan,** "Sudlar to'g'risida " gi qonunni 74-moddasi bechinchi bandida mavjud normalar va "Sudyalar Oliy Kengashi to'g'risida"gi qonunning 22-moddasi ikkinchi bandida mavjud bir-biriga zid kelayotgan normalarni tartibga solish lozim.

## REFERENCES

1. 2018-yil 13-iyulda qabul qilingan Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5482 son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyulda qabul qilingan “Sudlar to‘g‘risida” gi O‘RQ-703-sonli Qonuni
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Pratsessual kodeksi / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 22.09.1994,.
4. Конституционный Закон КР О статусе судей Кыргызской Республики <http://suddep.sot.kg/post/zakon-o-statuse-sudej-kr>
5. Qozog‘iston Respublikasida sud tizimi va sudyalarning maqomi to‘g‘risida - "Adilet" LIS [https://adilet.zan.kz/eng/docs/Z000000132\\_](https://adilet.zan.kz/eng/docs/Z000000132_)
6. Umumiy sudlar haqida | ს ს ი ჰ “ს ა ქ ა რ თ ვ ე ლ ო ს მ ა ე”  
ს ა კ ა ნ ო ნ მ დ ე ბ ლ ო <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90676?publication=48>
7. O‘zbekiston Respublikasining 2017 6-aprelda qabul qilingan “Sudyalar Oliy Kengashi to‘g‘risida” gi O‘RQ-427-sonli Qonuni